

AMIR TEMURNING MA`NAVIY QARASHLARI

SamDAQU xodimi M.Muratova

Samarqand shahar 81-maktab o`quvchisi

M.Axmadvova

Annotatsiya: ushbu maqola A.Temur ma`naviyati keng ma`naviy dunyoqarashi, g`oyalari, zamonaviy ma`naviy qadriyatlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Аннотация: В статье описывается роль Амира Темура и истории узбекской государственности.

Annotation: This article discusses the roli of Amir Temur in the histori of uzbek statehood.

**Kalit so`zlar;** Amir Temurning ma`naviy qarashlari.Amir Temurning hayoti bilan qiziqish Rossiya ,Yevropa butun dunyoda katta bo`lgan.

Ключевые слова; Духовный взгляды Амира Темура.Интерес к жизни Амира Темура был велик в России Европе и во всем мире.

Amir Temurning hayoti va faoliyati bilan qiziqish o`z davridan boshlab nafaqat mahalliy mualliflar,balki Rossiya,Yevropa,butun dunyoda katta bo`lgani ma`lum.Sohibqiron siymosi,hayoti va faoliyatiga atab yuzlab turli janr va tillarda asarlar yozib kelinmoqda.Ulug` bobomiz mahoratli sarkarda,ulug` donishmand,buyuk davlat arbobi Amir Temur hayoti juda serqirra va sermazmundir.Bizgacha yetib kelgan adabiyotlarda buyuk bobomizning buyuk sarkarda,adolatli davlat boshqaruvchisi va bunyodkor

Yagona davlat asoschisi ulug` donishmand haqida bizgacha yetib kelgan ma`lumotlar asosan bir yoqlama qora bo`yoqlarda aks ettirilgan. “Mana shu o`rinda Birinchi prezidentimizning Amir Temur tavalludinig 660yilligiga bag`ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada (1996 yil 24oktyabr)so`zlagan ma`ruzalarida aytilgan quydagi fikrlarni keltirib o`tmoqchimiz:”ming afsuski , biz boshimizdan o`tkazgan mustabid tuzum tufayli shunday bir ahvolga tushub qolgan edikki,ulug` ajdodimizning tarixi va faoliyatini, bashariyat rivojiga qo`shgan hissasini bugungi kunda xorijda-ya`ni AQSH,Germaniya,Fransiya,Buyuk Britaniya,Hindiston,Turkiya Eron,Pokiston va boshqa mamlakatlarda bizning o`zimizdan ko`ra ko`proq bilishadi.Bizlar-y`ni Amir Temurning Vatani bo`lmish shu zaminda o`sgan odamlar unig faoliyatini juda oz bilamiz”. Darhaqiqat,faqat mustaqillik tufayli biz Amir Temur shaxsiga qarashlarimizni o`zgartirdik.Birinchi prezidentimizning bu boradagi jasorati va tashabbusi bilan ulug` ajdodimizning shani va qadr- qimmatini qayta tiklandi.Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq davlat rahbari shu masalaga

muntazam e'tibor qaratgani bejiz emas-faxrimiz,g'ururimiz ana shu sarkarda bobomizning hayoti va faoliyati bilan vobastadir.Zero,bizning jahon ichra tenglar ichida teng ekanimiz ana shunday ulug'vor o'tmishga ega ekanimiz,faxr etishga,g'ururlanishga munosib ajdodimiz borligidan-basharti,uni bilish har birimiz uchun ham farz,ham qarzdir.¹ Amir Temur o'z davrida har tamonlama pishiq va rivojlangan harbiy uslubga ega bo'lgan qudratli qo'shinni tuza olgan mashhur harbiy qo'mondon sifatida jahonga tanilgan .Uning harbiy san'ati va davlatni boshqarish tartiblari haqidagi fikrlari so'nggi asrlarda ham o'z qiymatiga ega bo'lgan.Shuning uchun ham uning harbiy mahoratiga jahonga mashhur bo'lgan ko'pgina qo'mondonlar,ayniqsa, Yevropa davlatlari yuksak baho berishgan.Manbalarda yozishlaricha,Napoleon “Temur tuzuklari”ga kata e'tibor bergan va bu asar uning javonida alohida o'rin egallagan ekan.Inglizlar “Temur haqida”gi sahna asari bilan mavsumiy sahna ko'riklarini boshlar ekan.Demak,buyuk bobomiz Amir Temur jahonda mashhur siymolardan biri bo'lgan. Uning “Temur tuzuklari” davlatni boshqarish tartiblari va harbiy sohadagi uslublari(taktikasi),harbiy san'at sirlari bayon etilgan noyob asar sanaladi. Insoniyat bosib o'tgan yo'lining tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning rivojida,xalqlar taqdirida buyuk daholarning xizmatlari beqiyosdir.Insoniyat taraqqiyotini batamom yangi yo'nalishga solib yubora oladigan daholar tarixda nihoyatda kam uchraydi.Sunday ulug' insonlardan biri Amir Temurdir.Buyuk bobomiz o'z faoliyati bilan bir necha millatlarning taqdiriga osayishtalik,ilmu ma'rifat,madaniyat,obodonchiliklar olib kirganligi bilan qadrlidir.”Sohibqiron ma'naviyatida vatanni sevish,qadrlash,unga sidqidildan xizmat qilish,uni jahon miqyosiga ko'tarish,ozodlik,tenglik, insonparvarlik,milliy iftixor,mehnatsevarlik,ahloqiy poklik,ilm fanni qadrlash,dinga hurmat singari qadriyatlar mujassam”degan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi.Biz ajdodlarimizni xotirasini esga olganda, mamlakatimiz qudratini olamga tanitgan bobomiz sohibqiron Amir Temur xotirasini yodga olamiz va g'ururlanamiz.Uning tarixiy merosida biz davlatni ijtimoiy, xo'jalik, ma'naviy boshqaruvi haqida qimmatbaho fikrlarni uchratamiz.Tarixdan bizga ma'lumki,o'sha davrdagi ko'pgina davlat rahbarlari Amir Temur bilan yaxshi aloqa o'rnatishga xarakat qilishgan.Butun jahon tarixida buyuk davlat rahbarlari juda ko'p o'tgan,bo'lsada, hammasi ham Amir Temur bobomizdek buyuk ishlarni amalga oshiraolmagan.Machitlar,madrasalar,bozorlar,hammomlar,kanal va ko'priklar qurilishi ,daraxtlar va gullar ekilishi, xalqning buyuk sarkarda oldida jipslashishi buyuk bobomizning naqadar oliyjanob,adolatli,ma'naviyatli inson bo'lganligidan dalolatdir.Qadami yetgan joylarni obod qilib, minglab bog'lar yaratgan.Olti asr avval Amir Temur tarqoq,qashshoq davlatlarni birlashtirib buyuk

davlat barpo etdi.Buyuk sohibqiron saltanati Yevropa va Osiyoda oxirgi yirik mamlakat bo'lib hisoblanadi.Bu bilan Amir Temur bobomizning yirik fikir hamda boy

ma'naviy dunyoqarash sohibi ekanligini bilishimiz mumkin. Amir Temurning “Temur tuzuklari” bobomizning ko'p tarmoqli faoliyati hamda chuqur bilimidan dalolat beradi. Amir Temurning buyuk sarkarda, o'rta asr olimi, ilm va ma'naviyat tarafdori bo'lgan timsoli bir qancha nohaq, g'oyaviy qarashlar ta'siriga qaramay bir necha asrlardan buyon saqlanib kelmoqda. Amir Temur o'zi yaratgan qudratli davlatning poytaxti Samarqandda, insoniyat tarixidagi eng buyuk xodisa “uyg'onish” jarayonini boshladi va rivojlantirdi. Amir Temur ulg'aygani sayin hamfikirlari soni ortib boradi. Bunga o'zining aql idroki, mardligi, qo'rqmasligi, matonati bilan erishadi. Amir Temurning harbiy ishdagi bilag'onligi aql bilan jasurlikning uyg'unligida ko'rinadi. Amir Temur o'ttiz to'rt yoshida jami amir beklar tomonidan Movarounnahr hukmdori deb tan olinadi. Zamonlar o'taveradi, xalq esa qoladi, xalqning Temur bobomizga o'xshagan eng yaxshi farzandlari o'z o'tmish an'alarini davom ettirgan, yangidan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklarini yarata berganlar, harbiy san'atning, jismoniy madaniyatning taraqqiyoti uchun qayg'urgan. Amir Temurning ko'p qirrali faoliyatidagi ijobiy tomonlari uchun ota-bobolarimiz doim qadrlab kelgan. Biz ham buyuk bobomizni insoniyat madaniyatining ma'naviy sohalari bilan madaniyatga katta etibor berib, taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Biz Amir Temur haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni o'sha davrdagi tarixchilarning ma'lumotlaridan, diplomatlar, elchilarning yozishmalaridan, bilishimiz mumkin. Masalan, “Ibn Haldunning Mag'rib podshohiga yo'llagan maktubi ham alohida ahamiyatga ega. Unda Sharqdagi mo'g'ullar yurishlari va Amir Temurning qudrati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.”² Amir Temur siymosiga atalgan mehr va ehtirom, ayniqsa, uning tug'ulib o'sgan yurti O'zbekistonda istiqlol yillarida misli ko'rilmagan yuksakliklarga ko'tarildi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov xalqimizning Amir Temurga atalgan cheksiz mehr va ehtiromini “Ma'naviy yuksalish sari” kitobida quyidagicha ifodalagan edi: “hamisha el g'amini, yurt g'amini o'ylab yashagan sohibqiron yovlar oyog'i ostida toptalgan o'lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do'stlar, barchamiz yakdil bo'lib, halol mehnatimiz, aqlu zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O'zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik! Bu yo'lda bobokolonimizning “Adolat va ozodlik –dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin” degan dono o'gitlari doim shiorimiz bo'lsin!”³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marsel Brion “Menkim sohibqiron-jahongir Temur” 5-6 betlar
2. Ibn Xaldun “Muqaddima” 22-23 betlar
3. Islom Karimov “Ma'naviy yuksalish sari. T., 1998. 385-bet